

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

AXMEDOVA AZIZA RUSTAMOVNA

**BADIIY MATNDAGI FOLKLORIZMLARNING
LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI
(Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon asarlari misolida)**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Philological sciences**

Axmedova Aziza Rustamovna

Badiiy matndagi folklorizmlarning lingvopoetik xususiyatlari
(Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon asarlari misolida) 3

Axmedova Aziza Rustamovna

Linguopoetic features of folklore in a literary text
(on the example of the works of Abdulhamid Sulaimon son Chulpan) 25

Ахмедова Азиза Рустамовна

Лингвопоэтические особенности фольклоризмов в художественном тексте
(на примере произведений Абдулхамида Сулаймона оглы Чулпана) 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works53

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

AXMEDOVA AZIZA RUSTAMOVNA

**BADIIY MATNDAGI FOLKLORIZMLARNING
LINGVOPOETIKXUSUSIYATLARI
(Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon asarlari misolida)**

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.3.PhD/Fil446 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti veb-sahifasining www.tai.uz hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yuldashev Ma'rufjon Muhammadjonovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xakimova Muhayyo Karimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Saparniyazova Muyassar
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:


Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc 02/30.12.2019.Fil.46.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "28" mart soat 14.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent shahar, Shahrisabz tor ko'chasi, 5-uy. Tel: (871) 233-36-50; faks: (871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (21 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent shahar, Ziyolilar ko'chasi, 13-uy. Tel: (99871) 262-74-58

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "13" mart kuni tarqatildi.

(2025-yil "13" mart dagi 5 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.M. Mahmudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, f.f.d., professor



A.M. Hasanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, f.f.b.f.d. (PhD)



D.S. Xudoyberganova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida tilning badiiy-estetik imkoniyatlari, xususan, badiiy matnlarda folklor elementlarining qo'llanishi va ularning asarning badiiy-estetik jihatlari bilan uyg'unligi masalasi tadqiqiga katta ahamiyat berilmoqda. Buning sababi shundaki, xalq tomonidan yaratilib, asrlar davomida sayqallanib kelgan folklor namunalari o'zining quyma shakli, mazmuniy teranligi, xalq ruhiyati va sajiyasini betakror tarzda ifodalay olishi bilan badiiy asarning poetik qimmatini beqiyos darajada oshiradi, unga estetik quvvat va lisoniy jozibadorlik bag'ishlaydi. Shuning uchun ham badiiy asarlar tarkibiga mahorat bilan singdirilgan xalq og'zaki ijodi namunalari ko'lamini aniqlash, ularni tadqiq qilish orqali ona tilimiz badiiy-estetik imkoniyatlarining lisoniy birliklar vositasida voqelanishiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Dunyo tilshunosligida badiiy asarlar tilining lingvopoetik xususiyatlari fonetik, leksik-semantik va sintaktik sathlar asosida atroflicha tadqiq qilingan, muayyan shoir va yozuvchilar tomonidan qo'llangan til birliklarining lingvopoetik imkoniyatlarini o'rganish, asar badiiyatini ta'minlovchi vositalarni aniqlash bo'yicha ko'plab ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borilgan. XX asr boshlarida ijod qilib, o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan jadid adabiyoti vakillari tomonidan yaratilgan asarlar tilini o'rganish, ularning tilimiz ifodaviyligini boyitishga qo'shgan hissalarini aniqlash, bu borada ushbu asarlarning tutgan o'rnini belgilash bugungi o'zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan hisoblanadi¹.

Mamlakatimizda davlat tili hisoblangan o'zbek tilini o'rganish, uni chuqur ilmiy tadqiq qilish hozirgi vaqtda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masalalardan biri hisoblanadi. Zero, "Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o'z so'zini aytib kelganlar. Shu tilda buyuk madaniyat namunalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar"². O'zbek xalqining milliy mentaliteti, milliy tafakkur tarzi, an'anaviy urf-odatlar, o'ziga xos muloqot tarzini mujassam etgan ona tilimizni boy ma'naviy merosimiz hamda muqaddas qadriyatlarimizdan biri sifatida ardoqlash, xususan, uni milliy obrazli tafakkur hosilasi sifatida tadqiq etish bugungi tilshunoslikning dolzarb muammolari sirasiga kiruvchi obyektiv zaruriyatlardan biridir. Bu o'rinda hozirgi o'zbek adabiy tili taraqqiyoti uchun jon kuydirgan, o'z she'rlari, hikoyalari, roman va dramalari bilan o'zbek tili tarovatini namoyon qilgan Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon asarlari alohida qimmatga ega. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Cho'lpon asarlari tilini, xususan, adib tomonidan qo'llangan folklorizmlarning lingvopoetik xususiyatlarini monografik aspektda chuqur o'rganish mazkur muammoning hal bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi "Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risida"gi PQ-270-son qarori. Manba: <https://www.lex.uz/docs/-7027939>

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи, 2019 йил 22 октябрь.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi; 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon va qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Filologik yo‘nalishda folklorizmlar mavzusi doirasida muhim tadqiqotlar olib borilgan. Bu borada M.Azadovskiy, T.Aliyeva, I.Klimas, A.G.Kostina va boshqalarning tadqiqotlarini alohida ko‘rsatish mumkin³. O‘zbek filologiyasida folklorizmlar O.Sobirov, G‘.Mo‘minovlarning tadqiqotlarida dastlab “folklor an‘analari”, “folklordan foydalanish”, “folklor traditsiyalari” ilmiy istilohlari ostida o‘rganilgan⁴. B.Sarimsoqov, I.Yormatov L.Sharipova, X.Doniyarova, M.Narziqulova, D.Xoliqova, M.Imomkarimova kabi adabiyotshunoslar esa *folklorizm* atamasi, uning tasnifi va turlari, badiiy matndagi vazifalariga doir ilmiy tadqiqotlarni olib borganlar⁵.

Ma‘lumki, o‘zbek tilshunosligida badiiy matnning lingvopoetik tadqiqiga bag‘ishlangan salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Bu borada A.Nurmonov, S.Karimov, N.Mahmudov, M.Yo‘ldoshev, M.Yaqubbekova, D.Jamoliddinova, D.Andaniyazova, Sh.Toshxo‘jayeva, D.Turdialiyeva, T.Allayorov, Z.Muqimova, N.Erkinova, D.Sobirova, J.Yuldashev va boshqalar tomonidan muayyan

³ Азадовский М.К. Статьи о литературе и фольклоре. – М.-Л.: Гослитиздат, 1960. – 1056 с.; Алиева Т.С. Детская литература и фольклор // Philological sciences. Colloquium – journal. –Warszawa, 2023. – № 29(188). – Р. 14-15; Klimas И. Фольклорная лексикология: своеобразие объекта, состав единиц, специфика лексикологических категорий: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Орел, 2005. – 44 с.; Костина А.Г. Фольклорные элементы в лексической структуре художественных текстов Валентина Распутина: К истокам российской ментальности: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург: Лема, 2011. – 25 с.

⁴ Собиров О. Ўзбек совет адабиётида фольклор ва фольклор анъаналари // Ўзбек совет фольклори масалалари. 1-китоб. – Тошкент, 1970; Мўминов Ғ. Ҳозирги ўзбек адабиётида фольклоризм: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1994. – 288 б.

⁵ Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологиясига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1980. – № 4. – Б. 39-44; Шарипова Л.Ф. XX асрнинг 70-80 йиллари ўзбек шеърларида фольклоризмлар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 155 б.; Дониёрова Ш.Х. Истиқлол даври ўзбек романларида миллий рух ва қаҳрамон муаммоси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2012. – 257 б.; Нарзикулова М. “Сабаи Сайёр” достонида фольклоризмлар ва ўзбек фольклорида Баҳром сюжетининг талкини: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 151 б.; Холиқова Д. Ҳозирги ўзбек шеърларида фольклор анъаналари ва бадий маҳорат: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011. – 162 б.; Имомкаримова М. Ўткир Ҳошимов асарларида миллий кадрлар талкини: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 150 б.

tadqiqotlar olib borilgan va ilmiy-nazariy xulosalar bildirilgan⁶. Ammo, ta'kidlash lozimki, o'zbek tilshunosligida badiiy matnda qo'llangan folklorizmlar tadqiqiga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar mavjud emas. Jumladan, milliy tilshunosligimizda o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning badiiy til mahorati yoritib berilgan, publitsistik asarlarining lingvistik tahlili amalga oshirilgan⁷, ammo shu kunga qadar adibning asarlaridagi folklorizmlar lingvopoetik aspektda maxsus o'rganilgan emas.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Hozirgi globallashuv davrida o'zbek tili, uning tarixiy taraqqiyoti va istiqbollari (o'zbek tili vazifaviy uslublari tahlili asosida)" mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon asarlaridagi poetik aktuallashgan folklorizmlarni aniqlash hamda ularni lingvopoetik tadqiqot orqali yozuvchining tildan foydalanish mahoratini, o'zbek adabiy tili rivojiga qo'shgan hissasini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

adib asarlarida qo'llangan oddiy folklorizmlarning badiiy matndagi vazifalarini yoritish;

Cho'lpon asarlaridagi folklorizmlarning intertekstuallikni yaratishdagi imkoniyatlarini aniqlash;

Cho'lpon asarlarida qo'llangan analitik folklorizmlar – olqish, qarg'ish, qo'shiqlarni aniqlash, ularning badiiy matndagi vazifalarini hamda ijodkorning mazkur folklorizmlarni qo'llash borasidagi mahoratini ochib berish;

⁶ Нурмонов А. Тилшуносликнинг адабиёт билан муносабати // Танланган асарлар. 3 жилдди. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 3-жилд. – 376 б.; Каримов С. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: Самарқанд давлат университети, 1994. – 54 б.; Махмудов Н. Ойбек шеъриятидаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – № 6. – Б. 48-51; Shu muallif. Абдулла Қахҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1987. – № 4. – Б. 34-36; Shu muallif. Шайхзода сўзининг лингвопоэтикасига чизгилар // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 2009. – Б. 12-17; Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – 123 б.; Shu muallif. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 160 б.; Shu muallif. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009. – 314 б.; Shu muallif. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: O'zbekiston, 2019. – 256 б.; Якуббекова М.М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2005. – 256 б.; Жамолитдинова Д. Бадий нутқда парантез бирликларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 137 б.; Анданиязова Д. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (Phd) ... дисс. – Тошкент, 2017. – 160 б.; Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (Phd) ... дисс. – Фарғона, 2017. – 160 б.; Турдалиева Д. Ўзбек халқ мақоллари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Қарши, 2019. – 143 б.; Муқимова З. Ўткир Ҳошимов асарлари тилининг лингвопоэтик ва лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (Phd) ... дисс. – Тошкент, 2020. – 160 б.; Собирова Д. Мустақиллик даври ўзбек болалар шеърляти лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Андижон, 2022. – 172 б.; Юлдашев Ж. Усмон Носир шеърляти лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2023. – 162 б.

⁷ Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати ("Кеча ва кундуз" романи мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000. – 145 б.; Неъматова Д. Чўлпон публицистик асарларининг лингвистик таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 145 б.

adib asarlaridagi ijtimoiy-etnografik folklorizmlarni aniqlash va ularning lingvopoetik xususiyatlarini yoritish;

Tadqiqotning obyekti sifatida Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning to'rt jildlik asarlariga kiritilgan roman, hikoyalar, she'rlar va dramalar belgilangan.

Tadqiqotning predmetini Cho'lpon asarlarida qo'llangan folklorizmlarning lingvopoetik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, zidlash, lingvopoetik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Cho'lpon asarlarida qo'llangan *Hamal keldi, amal keldi, Ko'p gap – eshakka yuk, Og'zi qiyshiq bo'lsa ham boyning o'g'li gapirsin, Baliq bilmasa, Xoliq bilar* kabi maqollar; *to'nini teskari kiymoq, gap bilan sovutmoq, haddiga yetmoq, jon bo'g'izga kelib taqalmoq, ko'ngillarida g'am shamoli yurib qolibdirmi* kabi iboralar aniqlangan va ularning oddiy folklorizm ekanligi isbotlangan. Oddiy folklorizmlarning matnni shakllantirish, mazmunni obrazli ifodalash, ta'sirchanlikni oshirish, emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlikni kuchaytirish va ohangdorlikni ta'minlash singari lingvopoetik imkoniyatlari asoslangan;

Cho'lpon asarlarida intermatn sifatida qo'llangan maqol, ibora, xalq qo'shiqlari intertekstuallikning sarlavha, epigraf, allyuziya kabi turlarini yuzaga keltirilganligi aniqlangan; ularning milliy-madaniy semalarni tashish, estetik ta'sir qilish, assotsiativ obraz yaratish kabi vazifalari *O'rgangan ko'ngul o'rtansa qo'ymas, ikki o't orasida, Majnun* kabi misollar asosida dalillangan;

Cho'lpon asarlarida uchraydigan *Zebi, Zebi, Zebona, / Men ko'yingda devona. / Seni sotdi o'z otang, / Men bo'layin sadag'ang! / Zahar qilib oshingni / Pirim yedi boshingni! / Zebi, Zebi, Zebonam! / Qayda qolding, dilbarim?* kabi qo'shiqlar; *Sadag'alari ketsun, Oq yo'l bersin* kabi olqishlar, *O'lganim ming marta yaxshiroq, Ilohim, bo'yning tagingda qolsin, Murodingga yetmagin* kabi qarg'ishlar analitik folklorizm namunalari ekanligi isbotlangan hamda ularning badiiy matnning badiiy-estetik qiymatini oshirishra xizmat qilganligi dalillangan;

adib asarlaridagi mavsum va marosim qo'shiqlari, udumlar bilan bog'liq og'zaki adabiyot namunalari ijtimoiy-etnografik folklorizm namunalari ekanligi va ularning badiiy matndagi lingvopoetik xususiyatlari "To'p o'yini", "Kelinni kutib olish", "Kelinni aravadan tushirish" kabi milliy urf-odatlar, an'analar tasvirlangan badiiy matnlar tahlili asosida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Cho'lpon asarlari bo'yicha to'plangan folklorizmga oid materiallar, ularning tadqiqi natijasida chiqarilgan xulosa va talqinlar lingvopoetika, badiiy matn tahlili uchun muhim zaruriy, ilmiy ma'lumot berishi hamda bu yo'nalishga doir tadqiqotlar yaratishda nazariy manba sifatida xizmat qilishi asoslangan;

folklorizmlarning badiiy matnda tutgan o'rni lingvopoetik nuqtayi nazardan ochib berilgan;

folklorizmlarning lingvopoetik tadqiqi asosida Cho'lpon asarlarining o'zbek adabiy tili, xususan, uning funksional uslublaridan biri bo'lgan badiiy uslub taraqqiyotidagi roli ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tanlangan mavzu doirasidagi muammoning aniq belgilab olinganligi, nazariy ma'lumotlarning ishonchli

manbalardan olinganligi, tahlilga tortilgan lisoniy materiallarning asosiligi, zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda qo'llangan usullardan foydalanilganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan nazariy fikrlar lingvopoetikaga doir ishlarda, shuningdek, badiiy matnda folklor unsurlarini qo'llashning badiiy-estetik jihatlari bilan bog'liq tadqiqotlar yaratishda ilmiy-nazariy manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati "Badiiy matn lingvopoetikasi", "Badiiy matn tahlili", "Badiiy tahlil asoslari" kabi maxsus kurslarni o'qitishda; lingvopoetikaga oid darsliklar, monografiyalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ilmiy risolalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Cho'lpon asarlari misolida folklorizmlarning lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq qilish natijalari asosida:

Cho'lpon asarlarida uchraydigan *Hamal keldi, amal keldi, Ko'p gap – eshakka yuk, Og'zi qiyshiq bo'lsa ham boyning o'g'li gapirsin, Baliq bilmasa, Xoliq bilar* kabi maqollar; *to'nini teskari kiymoq, gap bilan sovutmoq, haddiga yetmoq, jon bo'g'izga kelib taqalmoq, ko'ngillarida g'am shamoli yurib qolibdirmi* kabi iboralarning oddiy folklorizm ekanligi haqidagi, xususan, ularning matnni shakllantirish, mazmunni obrazli tasvirlash, ta'sirchanlikni oshirish, emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlikni kuchaytirish va ohangdorlikni ta'minlash singari lingvopoetik imkoniyatlarini asoslashga oid ilmiy-nazariy xulosalardan O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida 2017–2019-yillarda amalga oshirilgan "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" 100 jildligini nashrga tayyorlash va uni tekstologik o'rganish masalalari (36-65-jildlar)" mavzusidagi OT-F1-76 raqamli fundamental ilmiy loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2021-yil 16-avgustdagi 3/1255-2271-son ma'lumotnomasi). Natijada xalq dostonlari tilida qo'llangan maqol va iboralarning matn jozibadorligini oshirishdagi roli isbotlangan;

Shuningdek, loyiha obyekti bo'lgan badiiy uslubdagi matnlarni lingvostilistik aspektda tahlil etishda Cho'lpon asarlarida intermatn sifatida qo'llangan maqol, ibora, xalq qo'shiqlari intertekstuallikning sarlavha, epigrafi, allyuziya kabi turlarini yuzaga keltirilganligi; ularning milliy-madaniy semalarni tashish, estetik ta'sir qilish, assotsiativ obraz yaratish kabi vazifalari *O'rgangan ko'ngul o'rtansa qo'ymas, Ikki o't orasida "Между двух огней"* (Ruscha bir asardan), *Majnun* kabi misollar asosida dalillashga; Cho'lpon asarlarida uchraydigan *Zebi, Zebi, Zebona, / Men ko'yingda devona. / Seni sotdi o'z otang, / Men bo'layin sadag'ang! / Zahar qilib oshingni / Pirim yedi boshingni! / Zebi, Zebi, Zebonam! / Qayda qolding, dilbarim?* kabi qo'shiqlar; *Sadag'alari ketsun, Oq yo'l bersin* kabi olqishlar, *O'lganim ming marta yaxshiroq, Ilohim, bo'ying tagingda qolsin, Murodingga yetmagin* kabi qarg'ishlar analitik folklorizm namunalari ekanligi; ularning badiiy matnning badiiy-estetik qiymatini oshirishga xizmat qilgan omil ekanligi bo'yicha chiqargan xulosalardan 2017–2019-yillarda O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida amalga oshirilgan OT-F1-78 "Hozirgi globallashuv davrida O'zbek tili, uning tarixiy taraqqiyoti va istiqbollari (O'zbek tilining vazifaviy uslublari asosida)" mavzusidagi fundamental loyihasida

foydalanilgan. Natijada loyihadagi badiiy uslub materiallarini tahlil qilish ko'lamini kengaytgan;

adib asarlaridagi mavsum va marosim qo'shiqlari, udumlar bilan bog'liq og'zaki adabiyot namunalari ijtimoiy-etnografik folklorizm namunalari ekanligi va ularning badiiy matndagi lingvopoetik xususiyatlari "To'p o'yini", "Kelinni kutib olish", "Kelinni aravadan tushirish" kabi milliy urf-odatlar, an'analar tasvirlangan badiiy matnlar tahlili asosida ochib berilganligi haqidagi xulosalardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Ma'daniyat va ma'rifat" telekanalida efitrga uzatilgan "Adabiy jarayon" ko'rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2021-yil 28-maydagi 01-16/111-son ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqotdagi ma'naviy-ma'rifiy fikrlar, ilmiy qarashlarga asoslangan xulosalar asosida teleko'rsatuv ssenariysi mazmunan boyigan va mukammallashgan.

Tadqiqot natijalarining aprobat siyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 5 ta respublika, 4 ta xalqaro konferensiyalarda qilingan ma'ruzalarda aprobat siyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shundan 5 tasi respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 121 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan; tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti belgilangan; respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan; ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan; tadqiqot natijalarining joriylanishi, e'lon qilingan ishlar, ishning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **"Folklorizmlar va ularning tadqiqi"** deb nomlangan. Bobda jahon va o'zbek tilshunosligida folklorizmlar tadqiq etilishi hamda Cho'lpon asarlarining til xususiyatlari o'rganilishi kabi masalalar yoritilgan.

Ushbu bobning **"Jahon va o'zbek tilshunosligida folklorizmlarning o'rganilishi"** deb nomlangan birinchi faslida folklorizmlar tadqiqi haqida so'z boradi.

Aytish joizki, adabiyotshunoslikda folklorizmlar bir qadar ilmiy tadqiq qilingan, tilshunoslikda esa badiiy asarlarda qo'llangan folklorizmlar lingvistik va lingvopoetik jihatdan yetarli darajada o'rganilmagan. Aslida badiiy matn tadqiqida ham folklorizmlar benihoya muhim o'rin egallaydi.

Folklorizm atamasi XIX asrda fransuz folklorshunosi P. Sebiyo tomonidan ilk bor qo'llangan. Unda mazkur atama yozuvchilar, tanqidchilar, shuningdek, jurnalistlarning xalq og'zaki ijodining syujetlari, motivlari va qiziqishlarini

tasvirlash uchun ishlatilgan⁸. “Folklorizm – bu xalq og‘zaki ijodi merosini mukammal san‘at asarlarida, badiiy havaskorlik namunalarida, badiiy adabiyotda qo‘llash, shuningdek, keng xalq ommasiga targ‘ib qilishdir”⁹.

Folklorizmlar rus adabiyotshunosligida XX asrning 30-yillarida M.K.Azadovskiy tomonidan tadqiq etila boshlangan. U folklorizmlarni ikkiga – ilmiy va badiiy folklorizmlarga ajratadi hamda ularni keltirib chiqaruvchi unsur mifologiya ekanligini ta’kidlaydi¹⁰. Olim V.G.Belinskiy, N.L.Dobrolyubov, N.G.Chernishovskiylarning ilmiy-ommabop, publitsistik asarlarida ilmiy folklorizmlar, Pushkin va Lermontovlarning badiiy asarlarida badiiy folklorizmlarni ko‘rsatib o‘tadi. M.Azadovskiy tomonidan publitsistik asarlarda qo‘llangan folklorizmlarni ilmiy folklorizm deb baholanishi noto‘g‘ri. Chunki publitsistikada ham folklorizm badiiy mahorat samarasi sifatida yuzaga chiqadi, asarning ta’sirchanligi ortishiga xizmat qiladi, xalqchilligini ta’minlaydi.

O‘zbek adabiyotshunosligida folklorizmlar tadqiqi va tasnifi masalasi XX asrning 70-yillari oxiri, 80-yillarining boshlariga to‘g‘ri keladi. “Folklorizm” istilohi hali ilmiy uslub doirasida qabul qilinmagan bir paytda folklor va adabiyot o‘rtasidagi bog‘liqlik “folklor an‘analari”, “folklor traditsiyalari”, “folklordan foydalanish” atamalari bilan tadqiq etilgan¹¹.

B.Sarimsoqov: “Biror ijodkor asariga biror maqsad bilan kiritilgan folklorga xos barcha materialni folklor emas, balki folklorizm atamasi bilan yuritish lozim”, – deb ta’kidlaydi. Olim P.S.Vixodsov tahlillariga tayanib, folklorizmlarni ikkiga ajratadi: “1. Oddiy folklorizmlar. 2. Murakkab folklorizmlar. Murakkab folklorizmlarning asarda bajargan vazifasiga ko‘ra 3 tipga ajratadi: analitik folklorizmlar, sintezlashgan folklorizmlar hamda stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar”¹².

L.Sharipova o‘zbek adabiyoti namunalarida uchraydigan folklorizmlarni qo‘llanish davri (mumtoz va zamonaviy), o‘rni (badiiy va publitsistik), sifati (oddiy va murakkab), yo‘nalish va vazifasi (uslubiy-nutqiy, kompozitsion va ijtimoiy-etnografik folklorizm)ga ko‘ra tasnif qiladi. Biz ham folklorizmlarni tasniflashda olimaning mazkur tasnifiga tayanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shuningdek, ushbu bobda O.Sobirov, G‘Mo‘minov, M.Narziqulova, D.Xoliqova, Sh.Doniyarova, A.Rohataliyevning tadqiqotlaridagi ilmiy qarashlar ham nazariy manba sifatida tahlil qilindi.

Folklor unsurlarini V.Rasputin asarlari misolida tadqiq qilgan A.G.Kostina “folklorizm” tushunchasi keng qamrovli ekanligini, folklor matnlarining o‘ziga xos folklor formulasi va folkloremadan iborat bo‘lishini ta’kidlaydi¹³. A.G.Kostina fikriga ko‘ra, folklorema an‘anaviy ma’noga ega bo‘lgan obrazli, ramziy leksema,

⁸ <https://www.litdic.ru/folklorizm/>

⁹ <http://www.chronobiology.ru/wp-content/plugins/gtrans/gtrans/termin-folklorizm.html>

¹⁰ Азадовский М.К. Статьи о литературе и фольклоре. – М.-Л.: Гослитиздат, 1960. – Б. 128.

¹¹ Шарипова Л.Ф. XX асрнинг 70-80 йиллари ўзбек шеърларида фольклоризмлар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 25.

¹² Бу haqda qarang: Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологиясига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1980. – № 4. – 41-44 б.

¹³ Костина А.Г. Фольклорные элементы в лексической структуре художественных текстов Валентина Распутина: К истокам российской ментальности: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург: Лема, 2011. – С. 11.

ibora (shu jumladan folklor formulasi ham), folklor matnining bir qismi yoki kichik folklor janri matnidan iborat. Bu ma'no matn yaratuvchisining mifologik tafakkuri, marosim yoki ideallashtirilgan folklor voqeligining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Folkloremaning asosiy mohiyati shundaki, u ijodkorning dunyoqa-rashini aks ettiradi va folklorning chuqur ma'nosini ochib beradi. Folklorema maqol yoki matal bilan ifodalanishi mumkin¹⁴.

Bobning ikkinchi fasli ***“Cho'lpon asarlari til xususiyatlarining tadqiqi”*** deb nomlanadi. Bunda Cho'lponning badiiy va publitsistik asarlarining jahon va milliy adabiyotshunosligimiz hamda tilshunosligimizda tadqiq etilishi masalalari tahlil qilingan, bu ishlarga munosabat bildirilgan.

O'zbek tilshunosligida Cho'lpon asarlari M.Yo'ldoshev, D.Ne'matovanning nomzodlik dissertatsiyalarida, Y.Sayidovning doktorlik dissertatsiyalarida tadqiq etilgan.

M.Yo'ldoshevning nomzodlik dissertatsiyasida Cho'lponning *“Kecha va kunduz”* romanining til xususiyatlari tadqiq etilgan bo'lib, Cho'lponning badiiy til mahorati, xususan, romani tili lingvopoetik aspektda o'rganilgan. Unda Cho'lponning o'zbek tilidagi leksik va frazeologik birliklar hamda asosiy badiiy tasviriy vositalardan foydalanishdagi o'ziga xos uslubi, bundagi lingvopoetik qonuniyatlar ochib berilgan¹⁵.

D.Ne'matova esa adibning publitsistik asarlari lingvistik tahlilini amalga oshirgan. U Cho'lpon asarlari asosida publitsistik uslubning siyosiy faollik, hozirjavoblik, o'tkir va ta'sirchan notiqlik xislati, kuchli tashviqot va targ'ibot xususiyatlari muhim belgi sifatida namoyon bo'lishini asosladi. Tilshunos o'zbek tili publitsistik uslubining shakllanishi va takomillashuvida Cho'lponning xizmatlarini ko'rsatib bergan, Cho'lpon publitsistikasida uchragan okkazional so'z yasallishlarini aniqlagan hamda hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik, so'z yasallishi va sintaktik me'yorlarining shakllanishida Cho'lpon publitsistik asarlarining o'rniga baho bergan¹⁶.

Y.Sayidovning *“Jadid badiiy asarlari leksikasi”* nomli doktorlik ishida jadid adabiyoti namoyandalari qatorida Cho'lpon asarlari leksikasi ham o'rganilgan. Ushbu ishda jadidlar asarlarida qo'llangan o'z va o'zlashgan qatlam birliklari, ularning genetik asosi aniqlangan, mavzuiy guruhlari, leksik-semantik va funksional xususiyatlari ochib berilgan¹⁷.

Cho'lpon asarlarining til xususiyatlari maqolalarda ham yoritilgan. Jumladan, O.Yusupovanning maqolasida Cho'lpon qo'llagan sintaktik parallelizmlarning adib tilining poetik individualligini ta'minlashga xizmat qilganligi ochib berilgan¹⁸. F.Karimovanning maqolasida Cho'lpon asarlarida

¹⁴ Костина А.Г. Ко'rsatilgan manba. – В. 11.

¹⁵ Ёўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати (*“Кеча ва кундуз”* романи мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 145 б.

¹⁶ Неъматова Д. Чўлпон публицистик асарларининг лингвистик таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 142 б.

¹⁷ Сайидов Ё. Жадид бадий асарлари лексикаси: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 282 б.

¹⁸ Yusupova O. Cho'lpon ijodiy izlanishlarida va poetik individuallikni ta'minlashda sintaktik parallelizmning o'rni // *“Yangi o'zbek adabiyotining shakllanishi va takomilida Abdulhamid Cho'lpon ijodining o'rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya.* – Andijon, 2022. – В. 198-206.

qo‘llangan *o‘tarava* (avtomobil), *ko‘mak ishlari* (xayriya), *hozirliq kurslari* (tayyorlov kurslari), *teatr to‘dasi* (teatr truppasi) kabi yasalmalar, shevaga oid so‘zlar aniqlanib, ularning milliy o‘zbek tilini boyitishda muhim ekanligi asoslangan¹⁹.

Umuman, o‘zbek tilshunosligida Cho‘lpon asarlari, xususan, uning ayrim nasriy asarlari hamda she‘rlarining til xususiyatlari, lingvopoetik jihatlarini tahlil qilingan, adibning til birliklaridan foydalanish mahorati ochib berilgan. Ammo uning asarlarida qo‘llangan folklorizmlar, ularning lingvopoetik xususiyatlari alohida tadqiq etilgan emas.

“Cho‘lpon asarlarida oddiy folklorizmlar lingvopoetikasi” deb nomlangan ikkinchi bobda adib ijodida qo‘llangan maqol hamda iboralarning lingvopoetik xususiyatlari ochib berilgan hamda folklorizmlar intertekstuallik vositasi sifatida tahlil qilingan.

Bobning **“Cho‘lpon asarlarida qo‘llangan maqollarning lingvopoetik xususiyatlari”** deb nomlangan birinchi faslida ijodkor o‘z asarlarida maqollardan qanday badiiy maqsadlarda foydalangani hamda uning asar tiliga ta’siri xususida so‘z boradi. Ushbu faslida maqollar oddiy folklorizmlar sifatida tadqiq etiladi.

B.Sarimsoqov xalq maqol va matallari, yumuq iboralari, og‘zaki nutq uchun xos bo‘lgan ifoda hamda oborotlarning qo‘llanishini oddiy folklorizm²⁰ deb hisoblaydi. I.Yormatov B.Sarimsoqovning tahlilini kengaytib, oddiy folklorizmlarning qo‘llanishiga ko‘ra ikki guruhini ajratib ko‘rsatadi: *asl oddiy folklorizmlar* va *qayta ishlangan oddiy folklorizmlar*²¹. U ijodkor tomonidan ongli tarzda, ma’lum g‘oyaviy-badiiy maqsadda hech qanday o‘zgarishsiz aynan qo‘llangan folklorizmlarni asl oddiy folklorizmlar; qayta ishlangan, biroz o‘zgartirish kiritilgan folklorizmlarni esa qayta ishlangan folklorizmlar deb ataydi²².

Keyingi yillarda xalq maqollarini o‘rganish borasida o‘zbek tilshunosligida ham qator tadqiqotlar amalga oshirildi. B.Jo‘rayeva nomzodlik ishida maqollarning idioma, ibora, matallar bilan umumiy hamda farqli jihatlarini etimologik, ma’noviy va sintaktik jihatdan farqlagan²³, doktorlik dissertatsiyasida esa folklor janrlari asosida shakllangan maqollarni bir necha turlarga ajratgan²⁴. Shuningdek, ushbu faslida X.Abdullayev, I.Mirzaliyev, D.Tosheva, D.Turdaliyeva, Sh.Qalandarov va D.Shadiyeva singari olimlarning maqollarning turli xususiyatlariga ko‘ra tahlillariga munosabat bildirildi²⁵.

¹⁹ Karimova F. Cho‘lpon va milliy til qayg‘usi // “Jadid ma’rifatparvarlarining o‘zbek adabiy til rivojidadagi o‘rni” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2024. – B. 75-78.

²⁰ Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологиясига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1980. – № 4. – Б. 40.

²¹ Ёрматов И. Фольклоризмларнинг типологик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1982. – № 2. – Б. 56.

²² Ёрматов И. Ko‘rsatilgan maqola. – B. 54-58.

²³ Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2002. – 136 б.

²⁴ Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2019. – 230 б.

²⁵ Абдуллаев Х.Д. Халқ мақолларининг “Қутадғу билиг” поэтикасидаги ўрни ва бадий-эстетик функциялари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 152 б.; Мирзаалиев И.М. Қадимги туркий мақоллар семантикаси ва стилистикаси (“Девону луғати-т-турк” материали мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 45 б.; Тошева Д.А. Зооним компонентли

Adibning “Kecha va kunduz” romani epigrafida *Hamal keldi, amal keldi*²⁶ maqoli keltirilgan. Adib, birinchidan, maqolni o‘z ma’nosida qo‘llagan, ikkinchidan, ijtimoiy hayotga nisbatan qo‘llanganda ham mazkur maqol o‘zini oqlaydi. Asar yozilgan davrda o‘zbek ayollari hech qanday haq-huquqlarga ega emas edi. Ularning hayotlari, kelajagi otalari ixtiyorida bo‘lgan. Turmushga chiqayotgan qizlar o‘z turmush o‘rtog‘ini faqat go‘shangadagina ko‘rishi taomil bo‘lgan. Adib balki ushbu maqolni keltirish orqali uning mazmuniga uyg‘onish, ayollarni ozodlikka olib chiqish vaqti kelganligini aytish g‘oyasini singdirmoqchi bo‘lgandir. Zero, Naim Karimov ta’kidlaganidek, “Cho‘lpon bu asarlari bilan yangi jamiyatni qurishga kirishgan avlod, avvalo, o‘zbek xotin-qizlari yashayotgan zindonni buzishi... ayollarimizning haqiqiy hurriyat va insoniy baxtga erishishini ta’minlashi lozim, degan ezgu g‘oyani ifodaladi”²⁷.

Ayon bo‘ladiki, epigraf sifatida tanlangan maqol butun bir romanning badiiy niyatini ochib bergan. Bu yozuvchining folklorizmlardan muhim lingvopoetik maqsadda foydalanganidan dalolat beradi. Akademik N.Karimov ta’kidlagan yangi zamon orzusi Cho‘lponning barcha asarlarida u yoki bu tarzda ifodalanadi. “Kecha va kunduz” romanida esa ayni istak birgina maqol mazmuniga singdirilgan. Aslida, ushbu xalq maqoli tabiat hodisasini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Biroq u badiiy asarga epigraf sifatida olingandan keyin ko‘chma ma’nolar bilan to‘yingan va asarning umumiga daxldor behad muhim unsurga aylangan.

O‘zbek tilida *Oyning o‘n beshi qorong‘u bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘* maqolining ma’nodoshi bo‘lgan *Botar kunning otar tongi bor* maqoli qo‘llaniladi. Ushbu maqolda qiyin kunlar ortidan yaxshi kunlar kelishiga ishora qilinib, har qanday mashaqqatning rohati ham bor, degan mazmun ifodalangan. Cho‘lpon “Og‘riganda” she’rida ushbu maqol qolipiga hamohang tarzda o‘z ijod mahsuli bo‘lgan okkazional ifodani keltiradi:

Bu yotishning so‘ngi, so‘ngi kelsun!

Yozilmaganmi bu tunlar so‘ngida tong otmak? (“Og‘riganda”)

Ko‘rinadiki, shoir *Yozilmaganmi bu tunlar so‘ngida tong otmak* tarzidagi individual ijod mahsulida *tun* so‘zi orqali qiyin kunlarga, *tong* so‘zi orqali esa yaxshi kunlarga ishora qilgan va tundan so‘ng albatta tong otadi, ya’ni og‘ir damlar o‘tib ketib, yorug‘ kunlar keladi, degan optimistik g‘oyani ilgari surgan. Ushbu ijod mahsuli shoirning aytmog‘chi bo‘lgan fikrini, maqsadini, ta’sirchan, obrazli, aniq tarzda yetkazishga xizmat qilgan, asarning xalqchilligini ta’minlagan.

Ushbu faslda Cho‘lpon asarlarida uchraydigan maqollar 3 guruhga ajratib tahlil qilindi: 1. O‘zgarishsiz qo‘llangan maqollar. 2. O‘zgartirib qo‘llangan maqollar. 3. Maqol qolipida yasalgan maqollar. Shuningdek, maqollar adibning

мақолларнинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 54 б.; Турдалиева Д.С. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2018. – 143 б.; Қаландаров Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфемизацияси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 43 б.; Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърини лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2007. – 144 б.

²⁶ Чўлпон Абдулҳамид Сулаймон ўғли. Асарлар. 4-жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2016. Keltirilgan barcha misollar shu jildliklardan olingan.

²⁷ Каримов Н. Чўлпоннинг бадий олами // Чўлпоннинг бадий олами: Жамоавий монография. – Тошкент: Фан, 1994. – Б. 60.

ayrim hollarda ramziy maqollar vositasida tasvirlanayotgan personajlarga ishora qilishi hamda muallif maqollardan muayyan vaziyatni tasvirlashda ham umumli foydalanganligi misollar asosida tahlil qilindi.

Bobning ikkinchi fasli **“Iboralarning lingvopoetik xususiyatlari”** deb nomlanib, Cho‘lpon asarlarida iboralarning qo‘llanishiga doir lingvopoetik tahlillar amalga oshirildi.

Iboralar ham oddiy folklorizm hisoblanadi. Iboralar xalq og‘zaki nutqida tayyor holda imkoniyat sifatida mavjud bo‘lib, har safar yangitdan yaratilmaydi, balki tayyor holda nutqqa olib kirilaveradi. Shu ma’noda, turg‘un ibora va muayyan qolipga ega oborotlarni ham oddiy folklorizmlar sifatida qabul qilish mumkin, degan fikrdamiz.

Cho‘lpon o‘z asarlarida iboralardan voqelikni tasvirlash, uni kitobxon ko‘z o‘ngida aniq gavdalantirish maqsadida foydalanadi. Yozuvchi bunda asar tilining ta’sirchanligini oshiradigan, badiiy-estetik niyatiga xizmat qiladigan, asar qahramonining xatti-harakati va ruhiyatini ochib beradigan chinakam xalq iboralaridan saralab tanlab oladi. Masalan, *quloq bermoq*, *ko‘ngli og‘rimoq*, *tili tutulmoq*, *ikki og‘iz gapirmoq*, *yuragi kuymoq*, *yo‘ldan ozmoq* kabi juda ko‘plab xalq iboralari adibning asarlaridan munosib o‘rin olgan: *Yig‘i kelgan tomong‘a biroz **quloq bergandan** so‘ng sharpasizgina, yalangoyoq yurdi.* (“Oydin kechalarda”). *Eshmurod bechoraning so‘ylamakg‘a ham **tili tutulub qolgan edi.*** (“Qurboni jaholat”). *Ertaga jum‘adan keyin machitda **ikki og‘iz gapirib** qo‘ysangiz dedilar.* (“Kecha va kunduz”). Aytadir: *“Bir ko‘rib **yo‘limdan o‘zib** Tog‘ va toshlar ichra istab yuramen! Bir ko‘rdim men uni – shunchalar go‘zal, Oydan-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal!”* (“Go‘zal”).

Ma’lumki, inson kasal bo‘lganida yuzida ham ba’zi bir alomatlar seziladi. Yuzi oqarib, so‘lg‘in holatga keladi. Uning tuzala boshlaganini, avvalo, yuzidan sezish mumkin, chunki oqargan yuziga qizillik yuguradi, yuzi avvalgi sog‘lom holiga qaytadi. Xalqimiz bunday holatda nutqimizda faol bo‘lgan “tetiklashmoq”, “sog‘aymoq” ma’nosidagi yuziga *qon yugurmoq* iborasini qo‘llaydi. Cho‘lpon ushbu faol iborani biroz o‘zgartirgan holda “Kecha va kunduz” romanida insonga nisbatan emas, balki bahorda tabiatning “uyg‘onish”iga nisbatan qo‘llagan: *Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko‘ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi.* (“Kecha va kunduz”).

Cho‘lponning xalq iboralariga murojaat qilish holatlarini tahlil qilish asosida ularni quyidagi usullarda o‘zgartirib qo‘llaganligi aniqlandi:

1. *Ibora tarkibidagi ayrim so‘zlarni almashtirish.* Bu usulda ibora tarkibidagi so‘z boshqasi bilan almashtirilganda, uning ma’nosi yanada kuchayishiga xizmat qiladi. Bunday iboralar lingvopoetik qiymat kasb etadi. Masalan: – *Qo‘y endi, kechqurunning maslahatini qilaylik. Bugun kechqurun kuyovni bir ish qilib suyganiga qovushtirmasak bo‘lmaydi. Juda alangasi osmonga chiqib ketdi! O‘zi ham xunuk ish bo‘ldi.* (“Kecha va Kunduz”). *Alangasi osmonga chiqib ketdi* iborasi *fig‘oni falakka chiqdi* iborasining o‘zgargan ko‘rinishi hisoblanadi.

2. *Ibora tarkibini kengaytirish.* Bunda iboraning leksik tarkibiga yangi so‘z yoki so‘z birikmasi kiritiladi. Cho‘lpon asarlarida ibora tarkibi kengayishining bir necha ko‘rinishlari mavjudligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Quyidagi misolda

insonning ruhiy holatini ifodalovchi *ko'ngli yumshamoq* iborasining qo'llanishida yozuvchi *ko'ngil* so'zini *bag'ir* so'zi bilan almashtirib, *bag'ri ortiq darajada yumshag'an* shaklida qo'llagan: *Kampirning ko'z yoshi kabi zaharlik yuzlari uzulub tashlangan guldek so'lg'an, toshdek qattig' bag'ri ortiq darajada yumshag'an, ko'nglida kuchli marhamat hissi uyg'ongan edi.* ("Oydin kechalarda").

3. *Iboraning tarkibini qisqartirish.* "Iboralar qisqaruvi dastlab nutq jarayonida boshlanadi va asta-sekinlik bilan tilda iboralarning to'la (yoyiq) va qisqargan variantlari paydo bo'la boshlaydi"²⁸. *Shovqini olamni buzadi, ovozi olamni buzadi* iboralari nutqimizda ko'p qo'llaniladi. Cho'lpon ushbu iborani qisqartirgan holda qo'llaydi: *Biror choynak ortib qolsa, sovutib qo'yarmiz. Akam ba'zi vaqtda yaxna choy deb nax olamni buzub yuboradi.* ("Nonushta").

Adibning iboralarni o'z ma'nodoshi bilan birga qo'llashi, turli iboralarni ketmaketlikda keltirishi, ularning tarkibini turli usullar bilan o'zgartirgan holda ishlatishi ham muayyan lingvopoetik maqsadlar, jumladan, iboralarning ta'sirchanligi, ekspressiv bo'yoqdorligi ortishi, mazkur birliklar ma'nosining yanada kuchayishiga xizmat qilgan. Bu esa adib asarlarining lingvopoetik jozibadorlik kasb etishida iboralar muhim o'rin tutganidan dalolat beradi.

Bobning uchinchi fasli "***Cho'lpon asarlarida folklorizm asosidagi intertekstuallikning lingvopoetik xususiyatlari***" deb nomlanib, ushbu faslda intertekstuallik hodisasi, uning tadqiqidagi mulohazali o'rinlar hamda badiiy matndagi o'ziga xos jihatlariga to'xtalib o'tiladi.

Badiiy matnning lingvopoetik tahlil tamoyillarida intertekstuallik hodisasi alohida ahamiyatga ega. Chunki badiiy tarkiblanishida juda ko'plab farqli matnlar yozuvchining badiiy niyatiga ko'ra bitta g'oya ostida jamlanadi, bu esa yaxlit matnda matnlararo aloqadorlik hodisasini o'rta qo'yadi. Ma'lumki, manbalardan badiiy matn tarkibiga olib kiritilgan o'zga matn yoki o'zga matnga aloqador unsurlar, o'zga matnga ishora qiluvchi birliklar intertekstuallikni yuzaga chiqaradi.

Badiiy asarga olib kiriladigan intermatn sarlavha yoki epigraf tarzida bo'lishi, shuningdek, asar o'rtasida yoki oxirida kelishi ham mumkin. Kiritilayotgan o'zga matn maqol, ibora, ashulalar, yor-yor, allalar, pretsedent nomlar kabi mikromatnlar yoki hikoya, rivoyat, afsona kabi makromatnlardan iborat bo'lishi mumkin.

Yozuvchi "Kecha va kunduz" romanida eshonning xarakterini ishonchli va obrazli tasvirlash uchun *O'rgangan ko'ngul o'rtansa* qo'yimas maqolidan intermatn sifatida foydalanadi: *U kishi, albatta, beraman desalar-ku, qo'llaridan keladi: har qanday katta zakunchining ishtahasini qondiradigan dunyolari bor. Faqat, ne choraki, u kishi berib o'rganmaganlar, olib o'rganganlar.* "***O'rgangan ko'ngul o'rtansa qo'yimas***", – deydi burungilar. ("Kecha va kunduz")

O'rgangan ko'ngul o'rtansa qo'yimas maqoli inson fe'l-atvorini baholovchi xalqona maqol hisoblanadi. Bu maqol orqali qahramonning salbiy fe'l-atvori ta'kid olgan. Matn strukturasiga ko'ra oxirgi o'rinda joylashganligi uchun dalillovchi xarakterga ega. Bundan oldin ayni ma'noni ifodalash maqsadida *ne choraki, u kishi berib o'rganmaganlar, olib o'rganganlar* tarzidagi izohlovchi jumla keltirilgan.

²⁸ Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари: Ўқув қўлланма. – Самарқанд, 1998. – Б. 142.

Aslida, *u kishi berib o'rganmaganlar, olib o'rganganlar* jumlasini xalq og'zaki ijodidagi Nasriddin Afandi latifalaridan birini yodga soladi. "Bir kuni namozga odamlar yig'ilganda machitning imomi tahorat olayotib hovuzga yiqildi. G'arq bo'layotgan imom, odamlar harchand qo'lingizni bering, deyishsa ham, qo'lini bermas edi. Hovuz bo'yiga Afandi kelib, odamlarni nari-beri surdi.

– Imomimiz "bering" degan gapni bilmaydilar, "mang" deyish kerak, – dedi va qo'lini uzatdi. – Mang, taqsir, mang!

Imom Afandining qo'lini oldi. Afandi uni tortib hovuzdan chiqardi"²⁹.

Demak, xalq tilida og'izdan og'izga o'tib yuruvchi bunday turg'un qurilmalar, B.Sarimsoqov ta'kidlagani kabi, oddiy folklorizm termini ostida o'rganilishi mumkin.

Tadqiqotda, shuningdek, epigraf sifatida kelgan mini va makrointermatnlar tahlilga tortilgan. Cho'lpon asarlarida intermatn sifatida qo'llangan ko'plab maqol, she'r va qo'shiqlarning lingvopoetik qiymatga ega bo'lganligi ko'rsatib berilgan

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Cho'lpon asarlarida murakkab folklorizmlar lingvopoetikasi"** deb nomlanadi.

Bobning birinchi fasli **"Cho'lpon asarlarida qo'shiq va olqishlar lingvopoetikasi"** bo'lib, unda analitik folklorizmlar tahlilga olinadi. Analitik folklorizmlar murakkab folklorizmlarning alohida turi bo'lib, qo'shiq, olqish, qarg'ish kabi janrlarni qamrab oladi. Ular badiiy asarda muallif nutqida ham, qahramonlar nutqida ham (ularning nutqini individuallashtirishda) keng qo'llanadi va muhim estetik vazifa bajaradi.

"Kecha va kunduz" romanida qo'shiq, olqish, qarg'ish kabi analitik folklorizmlar aynan yoki o'zgartirilgan tarzda qo'llangan holatlar kuzatiladi. Adib romanga bu tipdagi folklorizmlarni olib kirish orqali asarini mazmunan boyitishga, shu bilan birga, personajlar ruhiyatini ochib berishga muvaffaq bo'lgan. Bu holat romanda qo'llangan quyidagi xalq qo'shig'ini kuylash epizodi tasvirida ko'zga tashlanadi:

Qizlardan javob kutib o'tirmasdanoq Salti o'zi boshlab yubordi:

Uzun-uzun arg'amchi-yo...

Qizlar qo'shilishdi:

... Halinchakka,

Chakan ko'ynak yarashar

Kelinchakka,

Chakan ko'ynak yengiga

Tut qoqaylik...

Bir-ikki bayt o'tgandan keyin Zebining tiniq, g'uborsiz, jonon piyoladek jaranglab chiqadigan chiroyli va o'tkir ovozi qo'shildi. ("Kecha va kunduz")

Anglashiladiki, "Yor-yor" qo'shig'idan olingan ushbu parchani romandan olib tashlash imkonsiz. Qo'shiq ushbu asarga roman syujeti bilan bog'liq holda kiritilgan. Bu holat qo'shiqning matn yaxlitligini ta'minlovchi unsur vazifasini bajarganligini anglatadi. Agar ushbu o'rinda qo'shiq matndan olib tashlansa, mana shu yaxlitlikka putur yetadi. Xarakterli jihati, adib ushbu qo'shiq orqali asardagi voqealar rivojiga yo'l ochgan. "Bir-ikki bayt o'tgandan keyin Zebining tiniq,

²⁹ Афанди латифалари. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б. 120.

g'uborsiz, jonon piyoladek jaranglab chiqadigan chiroyli va o'tkir ovozi qo'shilishi" ushbu qo'shiq romanda syujet voqeasini rivojlantirish uchun bir turtki vazifasini o'taganligini asoslaydi. Demak, adib bu o'rinda qo'shiqdan mohirlik bilan foydalanib, unga muayyan vazifa yuklay olgan.

Asar so'ngida ham yozuvchi qo'shiqdan foydalanadi:

Hamon o'sha eshonnikidagi singari har kimga qizini maqtab gapirar, so'ngra ho'ngrak otib achchiq-achchiq yig'lagach, "Yoriltosh" kuyida o'zi to'qigan baytlarini o'qirdi:

Zebi, Zebi, Zebona, // Men ko'yingda devona. // Seni sotdi o'z otang, // Men bo'layin sadag'ang! // Zahar qilib oshingni // Pirim yedi boshingni! // Zebi, Zebi, Zebonam! Qayda qolding, dilbarim? ("Kecha va kunduz")

Ko'rinadiki, ona izzatlarini tasvirlashda ushbu qo'shiqning o'rni beqiyos. Unda qo'llangan leksik takror (*Zebi, Zebi, Zebonam*), *zahar qilib oshingni, (Pirim) yedi boshingni* iboralari qo'shiqqa o'ziga xos ohangdorlik bag'ishlagan. "Yoriltosh" ertagi va "Kecha va kunduz" romani bosh qahramonlarining "qismati"da o'xshashlik mavjud. Zebi onasining qayg'u-izzatlarini aks ettirgan qo'shiqning "Yoriltosh" ertagi kuyida" ekanligi ona ruhiyatida azoblanish hissi nihoyatda kuchli ekanligini bo'rttirishga xizmat qilgan. Ko'rinadiki, adib qo'shiq va uning "kuyi" nomidan ona obraziga xos ruhiyatni tasvirlashda unumli foydalanib, ushbu epizod tasvirining ta'chirchan bo'lishiga erishgan. Bu holat asar badiiy-estetik qiymatining yanada oshirilishiga olib kelgan. Mushtipar onaning dardli qo'shig'i an'anaviy xalq qo'shiqchiligi yo'lida yaratilgan. Qo'shiq uchun oldindan tayyor shakl tanlanib, unga tamoman yangi mazmun, alam-qayg'u, dard yuklangan. Demak, bunday vaziyatda folklorizmning muayyan shaklini saqlagan holda mazmunini yangilash, o'zgartirish muallifning badiiy niyatiga muvofiq holda amalga oshirilgan.

Cho'lponning folklorizmlardan foydalanishdagi yana bir mahorati shundaki, u romanda "Yor-yor" qo'shig'i mazmunidagi "baxtiyorlik", ona qo'shig'idagi g'amginlik, qayg'u-izzat ifodasi orqali kuchli darajadagi kontrast tasvirlarni hosil qilib, asarida emotsional-ekspressivlikni yanada kuchaytirishga erishgan.

Cho'lpon asarlarida olqish analitik folklorizmi ham ko'p kuzatiladi. Ma'lumki, olqishlar kishilarni sharaflash, ulug'lash va shu orqali ularga ezgu tilaklarni bildirish vazifasini bajaradi. B.Sarimsoqovning qayd etishicha, olqishlar inson hayotida yuz bergan biror-bir ijtimoiy-hayotiy o'zgarishni sharaflash, shuning bahonasida hayotida ruhiy evrilish yuz bergan kishiga yaxshi niyat bildirish vazifasida qo'llanadi, shu sababli qadimdan bir olamdan boshqa olamga o'tayotganlar, yangi bir ish boshlovchilarga bag'ishlab olqish aytish odati shakllangan. Inson o'zidagi so'zlash iqtidorini ilohiy qudrat deb bilgan. Ko'rish, so'zlash va xatti-harakat uchligida sehr-jodu qudratini ko'ra olgan va o'zining butun faoliyatida ularga munosabatda bo'lishga intilgan³⁰. F.Eshbayeva olqishlar ifoda maqsadining istak shaklida bo'lishi olqish bilan qarg'ishni so'kishdan keskin ajratib turuvchi umumiy xususiyat hisoblanishini qayd etadi. Uning fikricha, bu ikkala janrning ijrochilari tinglovchi shaxsiyatiga nisbatan jismoniy kuch

³⁰Саримсоқов Б. Олқишлар ва қарғишлар // Ўзбек фольклори очерклари. 3 томлик. – Тошкент: Фан, 1988. 1-том. – Б. 128-143.

ishlatishga majbur etadigan darajadagi haqoratli hukmni ifoda etmaydilar³¹. Berilgan ta'riflardan anglashiladiki, olqishlarda ulug'lash, olqishlash tilak, istak shaklida namoyon bo'ladi.

Cho'lpon asarlarida maxsus olqish ifodalovchi analitik folklorizmlar kam uchraydi. Biroq adib asarlarida olqishning boshqa til birliklari orqali ifodalanishi ko'p kuzatiladi. Jumladan:

1. Ayrim tilak bildiruvchi konstruksiyalar olqish uchun qo'llangan. Masalan: – *Xayr, yashangiz, sog' o'lungiz, otalarim, akalarim va suyuklu og'alarim!..* (“Do‘xtur Muhammadiyor”)

Berilgan misolda *sog' o'lungiz* (*sog'* bo'ling) tilak bildiruvchi konstruksiyasi qo'llangan. Ammo bu konstruksiya nutq egasining betob kimsaga uning sog'ayishini istab bildirgan tilagini anglatmaydi. Balki so'zlovchi nutqida “otalari, akalari, suyuklu og'alari”ni olqishlaydi, tilak bildiruvchi konstruksiyaga ham shu vazifani yuklaydi. Uning nutqi tarkibida ishlatilgan *yashangiz* jumlası ushbu olqishni kuchaytirishga xizmat qiladi.

2. Ayrim iboralar olqish uchun qo'llangan. Masalan: *Samandarboy bir yosh qizini, bir eshonni, boyagi nazr-niyoz masalasini, eng so'ng kimsan hazrat eshonning kuyovliklarini o'ylab turdi-da:*

– *“Bitta qizimiz bo'lsa, hazrat eshonimizg'a tutdik, **sadag'alari ketsun!**”.* (“Qor qo'ynida lola”)

Berilgan matnda qo'llangan *sadag'alari ketsun* iborasi “Kimsaning qurboni bo'lmoq; kimsa yoki narsaga jon fido qilmoq; aylanmoq, o'rgilmoq”³² ma'nosini anglatadi. Adib ushbu iboradan eshonni olqishlashda foydalangan. Cho'lpon ushbu she'rida *Oq yo'l bersin!* duosini qofiya talabi bilan *Yo'ling bo'lsin oq* shaklida (natijada oq so'ziga ta'kid ma'nosi yuklangan) olqish ifodasi uchun ham ishlatgan. Olqish shoirning Vataniga, butun Turkiston xalqiga qaratilgan. Bu holat she'rning ekspressivligini oshirishga xizmat qilgan:

Ketdilar birga yiroq safarga,

***Xudo yo'l bersin** turkistoniylarga...*

Belinda kamar, qo'lida bayroq,

*Ulug' Turkiston, **yo'ling bo'lsin oq.*** (“O'zbeklar”)

Ko'rinadiki, mazkur she'rda *Xudo yo'l bersin* duosi bilan parallel ravishda *Yo'ling bo'lsin oq* tilak bildiruvchi konstruksiyasi ham qo'llangan. Ammo shoir keyingi birlik zimmasiga olqishni ado etish vazifasini yuklagan. Natijada she'rda semantik jihatdan ortiqchalik yuzaga kelmagan.

Bobning ikkinchi fasli “*Adib asarlarida qarg'ishlar lingvopoetikasi*” deb nomlanadi. Qarg'ishlar “inson, hayvon, o'simlik va narsalarga baxtsizlik va jazo tilaydigan barqaror so'z birikmalari”³³ bo'lib, asosan, ayollar nutqiga xoslanganligi bilan xarakterlanadi. Slavyan folklor an'alarining mifologik jihatini o'rgangan L.N.Vinogradova “qarg'ish” (“проклятие”) so'zining bir nechta ma'nolarga

³¹Эшбаева Ф. Ўзбек халқ қарғишларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 31.

³² O'zbek tilining izohli lug'ati. Madvaliyev A., Xudoyberganova D. tahriri ostida. 6 jildli. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 4-jild. – B. 487.

³³ Виноградова Л.Н. Мифологический аспект славянской фольклорной традиции. – М.: Индрик, 2016. – С. 288.

egaligini qayd etadi: 1. Kimnidir (yoki biror narsani) qoralashning eng keskin shakli bo'lib, to'liq aloqani uzish, qabul qilmaslik, begonalashtirishni anglatadi. 2. Kingadir (yoki biror narsaga) qaratilgan haqorat, so'kinish, g'azab (yomonlash). 3. Insonni ta'qib qiluvchi yovuz qismat, baxtsizlik"³⁴. O'zbek folklorshunosligida M.Murodov qarg'ishlarni biror-bir kishiga o'lim tilash, yomonlik tilash, qalbini jarohatlash, muhtojlik tilash kabi turlarga bo'lib o'rgangan³⁵. B.Sarimsoqov qarg'ishlarni jonsiz predmetlar bilan bog'liq qarg'ishlar, kishiga o'lim tilash, kishining biror a'zosiga zarar yetkazishni tilash xarakteridagi qarg'ishlar kabi turlarga ajratgan³⁶. Qarg'ishlar folklor janri bo'lsa-da, tilshunoslik aspektida ham o'rganilgan. Xususan, Z.M.Aliyeva chamalin tilida ijobiy tilak bildiruvchi birliklar va qarg'ishlarning struktur-semantik xususiyatlarini tadqiq etgan³⁷.

Cho'lpon asarlarida ham personajlar nutqida ishlatilgan har bir qarg'ish muayyan lingvopoetik vazifa bajargan. Adib asarlarida qarg'ishlarning quyidagi turlaridan foydalangan: **1. O'ziga nisbatan qo'llangan qarg'ishlar.** Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidan olingan quyidagi parchada qarg'ish konstruksiyasi nutq egasining o'ziga qaratilgan bo'lib, uning o'z moddiy ahvolidan noroziligini bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qilgan: *Enaxon... o'z qo'lida munday qudrat yo'qligini o'ylab noumidlikka tushar, bo'g'ilardi... – O'lganim yaxshi mening! – dedi u. – Ko'nguldagidek bir siylay olmasam mehmonlarimni!* ("Kecha va kunduz")

Yozuvchi roman personaji Enaxonning moliyaviy jihatdan ahvoli yomonligi tufayli mehmonga kelgan dugonalarini noz-ne'matlar bilan siylay olmaganidan xafaligi, buning uchun o'lishga ham tayyorligini o'z-o'zini qarg'ishni anglatuvchi *O'lganim yaxshi mening!* analitik folklorizmi yordamida ko'rsatib bergan. Ushbu qarg'ishda *mening* olmoshining jumla oxiriga ko'chirilishi va uning mantiqiy urg'uga ega bo'lishi qarg'ish qaratilgan subyektni ajratib ko'rsatishga, ta'kidni oshirishga xizmat qilgan. Bu bilan adib matnning badiiy-estetik quvvatini yanada kuchaytirishga erishgan.

2. O'zga shaxslarga nisbatan qo'llangan qarg'ishlar. Cho'lpon o'z asarlarida personajlarining ruhiyati, kayfiyati, g'azabi, noroziligi kabilarni ko'rsatishda qarg'ishning mazkur turidan ham foydalangan. Masalan:

– *Nimasini aytasan, otasining uyi kuysun, odam emas ekan!* ("Qor qo'ynida lola")

Ma'lumki, qarg'ish ko'pincha bir kishiga qaratiladi. Ammo Cho'lpon qarg'ishlarni butun boshli mustabid tuzum vakillariga nisbatan ham qo'llaganini ko'rish mumkin. "Xazon" she'rida keltirilgan ikki qarg'ishda Cho'lpon "*sovuq ellardan muz kiyib kelg'onlar*", "*mening bog'imdan gullarni terg'onlar*"ga bo'lgan nafratini qarg'ishlar orqali quyidagicha aks ettirgan:

*Ey, sovuq ellardan muz kiyib kelg'onlar,
U qo'pol tushungiz qorlarda yo'q bo'lsin,*

³⁴ Виноградова Л.Н. Ko'rsatilgan asar. – B. 288.

³⁵ Муродов М. Қарғиш ва олқиш // Сарчашмадан томчилар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б.130-131.

³⁶ Саримсоқов Б. Олқишлар ва қарғишлар // Ўзбек фольклори очерклари. 3 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1988. 1-жилд. – Б. 149-150.

³⁷ Алиева З.М. Структурно-семантические типы благопожеланий и проклятий в чамалинском языке // Литера. 2020. – № 2 // URL: https://nbpublish.com/library_readarticle.php?id=29278

*Ey, mening bog'imdan gullarni terg'onlar,
U qora boshingiz yerlarga ko'milsin!* ("Xazon")

Cho'lpon bu qarg'ishlar orqali yurtimizni bosib olgan chor hukumatiga nafratini ochiq bayon qilgan. Birinchi *U qo'pol tushungiz qorlarda yo'q bo'lsin* qarg'ish konstruksiyasida muallif dushmanlari o'z orzusi – "qo'pol tush"iga erisha olmasliklarini tilagan bo'lsa, she'rning keyingi bandida berilgan *U qora boshingiz yerlarga ko'milsin* qarg'ishi orqali ularga o'lim tilagan. Ikkinchi qarg'ishda boshga nisbatan *qora* epiteti bejiz ishlatilmagan. Ma'lumki, qora rangi marhumlar dunyosi, o'liklar saltanati, qo'rquv, zulmat, jaholat, yovuzlik, g'am-anduh rangi sifatida tasavvur qilinadi³⁸. Bu holat qarg'ishga yanada sovuq ruh berib, uning ta'sirchanligini oshirgan.

3. Predmet va voqea-hodisalarga nisbatan qo'llangan qarg'ishlar.

Cho'lpon asarlarida qarg'ishlar narsa-predmetlarga, yuz bergan biror-bir voqea-hodisaga nisbatan ham ishlatilgan. Bunday holatda ham uning asarlarida qo'llangan qarg'ish konstruksiyalari badiiy nutqning estetikligini ta'minlagan. Masalan, "Paranji" she'rida qarg'ash ayollar paranjisiga qaratilganligi bilan xarakterlidir:

Borlig'imni yiqib // Yerlarga ko'milsin! // Yo'q bo'lsin, // Yo'q bo'lsin, //
Yo'q bo'lsin // Paranji! ("Paranji")

Cho'lpon paranji tashlash voqeasiga munosabat bildirar ekan, paranjining ayollar hayotidan butunlay yo'q bo'lishi, "yerga ko'milishi"ni tilaydi. Ushbu she'rda qo'llangan *Borlig'imni yiqib Yerlarga ko'milsin! Yo'q bo'lsin, Yo'q bo'lsin, Yo'q bo'lsin Paranji!* qarg'ish konstruksiyalari nafaqat nafrat, g'azab ifodasi uchun xizmat qilgan, balki she'riy matnning qarg'ish mazmuni bilan uyg'unligini ta'minlab, uning ekspressivligini oshirgan.

Bobning uchinchi fasli "*Cho'lpon asarlarida qo'llangan ijtimoiy-etnografik folklorizmlar lingvopoetikasi*" deb nomlanib, adibning milliy an'ana va urf-odatlardan asar matnida badiiylik, estetiklik, ekspressivlikni yuzaga chiqarish vositasi sifatida foydalanish mahorati tahlil qilinadi.

Millatning milliy an'analari, urf-odatlarini aks ettiruvchi folklorizmlar etnografik folklorizmlar bo'lib, badiiy asarning nafaqat xalqchilligi, balki estetikligini hosil qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Folklorshunoslikda "... mavsum va marosim qo'shiqlari, udumlar bilan bog'liq og'zaki adabiyot namunalarining yozma adabiyotga ta'siri ijtimoiy-etnografik folklorizm hisoblanishi mumkin"³⁹li qayd etiladi.

Cho'lpon o'z asarlarida o'zbek xalqining milliy urf-odatlarini, an'analari, marosimlarini tasvirlashda 2 xil yo'ldan borgan: 1. Ijtimoiy-etnografik folklorizmlar yordamida xalqimizning milliy urf-odatlarini, an'analari, marosimlarini maromiga yetkazib tasvirlab bergan. 2. Ijtimoiy-etnografik folklorizmlarga murojaat qilmagan holda xalqimizning milliy urf-odatlarini, an'analari, marosimlarini mukammal tasvirlab bergan.

³⁸ Рўзиева М. Ранглар билан боғлиқ мифологик қарашлар моҳияти // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. – Тошкент, 2022. – № 4. – Б. 41.

³⁹ Шарипова Л. XX асрнинг 70-80-йиллари ўзбек шеърларида фольклоризмлар. – Тошкент: Фан, 2011. – Б. 36.

Cho'lpon o'z asarlarida ijtimoiy-etnografik folklorizmlarni qo'llash orqali asarlarining nafaqat badiiy-estetikligini, balki xalqchilligini ham ta'minlagan. Jumladan, uning "Qor qo'ynida lola" hikoyasida bolalar to'p o'yini tasvirlangan. Xarakterli jihati shuki, hikoya ushbu o'yin tasviri bilan boshlanadi:

"Bir, ikki, uch, to'rt... to'rt... besh! Besh... besh... olti! Yetti, sakkiz, to'qqiz, o'n..."

Kichkina, qizil ipdan bezalgan to'p (kaptov) aljib qochib ketib, yerto'la og'ilning devoriga yondoshib o'skan yosh qantak o'rikka borib tegdi-da, sakrab hovuzg'a "sho'p" etib tushib ham ketdi...

Qizlar barchasi birdan:

– Voy, o'la qolay, hovuzg'a tushib ketdi! – deb qichqirishib yubordilar...

... Suv bilan shalabbo bo'lg'an to'pni Sharofatxon oldi-da, "Hu, qochmay o'lg'in, tutulding-ku!" – deb yerga urdi. ("Qor qo'ynida lola")

Ushbu matnda berilgan *"Bir, ikki, uch, to'rt... to'rt... besh! Besh... besh... olti! Yetti, sakkiz, to'qqiz, o'n..."* jumlasini hikoyaga to'p o'yini jarayonini aks ettirish maqsadida kiritilgan. Yozuvchi, avvalo, hikoyadagi qizlarning yoshi kichikligini bo'rttirib ko'rsatish hamda asarga davr ruhini berish, qolaversa, asarning ta'sir kuchini oshirish uchun uni aynan to'p o'yini tasviri bilan boshlaydi va ushbu etnografik folklorizmni matnga olib kiradi. Yosh bir qizning erksizligi, bobosi tengi odamga nazr qilinishi, oppoq soqolli "qarib quyilmag'on, achib suyilmag'on" eshonning yuzsizligini tasvirlashdan oldin asarga to'p o'yini epizodining kiritilishi qizning hali koptok o'ynaydigan darajada yosh bola ekanligi va erki o'zida emasligiga ishora bo'lib, adib bu epizoddan lingvopoetik maqsad yo'lida foydalangan. Ushbu matnda personaj tomonidan o'ziga nisbatan qo'llangan *"Voy, o'la qolay"* qarg'ishi hamda predmet (koptok)ga qaratilgan *"Hu, qochmay o'lg'in..."* qarg'ishi o'zbek xotin-qizlari nutqiga xos individuallikni ko'rsatish bilan birga, asar matnining ta'sir quvvatini oshirishga xizmat qilgan. Mazkur hikoya boshida tasvirlangan yosh qizlarning to'p o'yini epizodi hamda asar so'ngidagi to'y tasviri lavhasi kuchli kontrastlikni hosil qilgan. Bu esa asarda emotsional-ekspressivlikning yuqori darajada ifodalanishiga xizmat qilgan.

Cho'lpon o'z asarlarida xalqimizning milliy qadriyatlari hisoblangan to'y marosimi, er-xotinning bir-biriga ismini aytmay murojaat qilishi urf-odati va boshqa qadriyatlarni qalamga olar ekan, matn tarkibida ularga ishora qiluvchi ijtimoiy-etnografik folklorizmlarni qo'llamasa ham, tasvirda badiiylikka, ta'sirchanlikka erishgan. Adibning "Qor qo'ynida lola" hikoyasida kuyovning kelinni aravadan ko'tarib tushishi epizodi mavjud. Xalqimizda kuyov uyiga kelgan kelinni aravadan olib, uyigacha ko'targan holda olib kirish udumi mavjud bo'lgan. Bu udum orqali kuyovning yoshligini, o'ziga yarasha kuch-quvvati borligi va ayolini doim asrab-avaylashini xalqqa ko'rsatilgan. Ushbu udum hozir ham yurtimizning ba'zi hududlarida saqlanib qolgan. Cho'lpon ham ushbu udum tasvirini asariga olib kirgan.

Bir vaqt oppoq soqolli, qari, bo'shashg'an bir chol (kuyov to'ra) ustiga zarbof to'n kiyib, katta o'rama belboq bog'lag'ani holda birmuncha oqsoqol muridlari o'rtasida sekingina sudralib aravaga yaqinlashdi.

Yana xalq o'rtasida:

– Ko'taring-a, kuyov pochcha, ko'taring-a!

– *O‘zingizni tetik tuting, taqsir!*

– *Ha, taqsir, ko‘taring!*

Chol titrak qo‘llarini aravaga uzatib, qizni ko‘tardi va bir-ikki odum bosg‘andan so‘ng yerga qo‘ydi.

Matnda kuyovga nisbatan berilgan *oppoq soqolli, qari, bo‘shashg‘an* epitetlari o‘quvchi ongida qari bir chol qiyofasini tiklashga xizmat qilgan. Hikoyada ushbu kuyovning kelinni aravadan dast ko‘tarishi va bir-ikki odim tashlagach, yerga qo‘yishi epizodi yanada yorqin bo‘yoqlar bilan tasvirlangan. To‘y tasvirining ushbu epizodida qo‘llangan “*titrak qo‘llar*” epitetli birikmasi lingvopoetik jihatdan xarakterlidir. Ushbu “*titrak qo‘llar*” orqali kuyovning zaifligi, kuchdan qolganligi va kelinni uyga ko‘tarib kira olmasligiga ishora mavjud. Anglashiladiki, adib ushbu epitetli konstruksiyaga nafaqat badiiy-estetik, balki pragmatik vazifa – kuyovning zaif, qari chol ekanligini aks ettiruvchi axborotni yuzaga chiqarishni ham yuklagan.

Cho‘lpon asarlarida ijtimoiy-etnografik folklorizmlarning muayyan turlaridan unumli foydalangan. U o‘zbek xalqining urf-odatlarini, an‘analarini badiiy maqsadga mos ravishda yuksak mahorat bilan tasvirlagan va asarlarining ta’sirchan chiqishiga erishgan.

XULOSA

Cho‘lpon asarlaridagi folklorizmlarning lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etish quyidagi umumiy xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon o‘zbek adabiyotining eng yirik vakillaridan biri sifatida o‘zidan juda katta va boy meros qoldirdi. Adibning badiiy asarlari o‘zbek filologiyasida ancha batafsil o‘rganilgan. Shu bilan birga hozirgi vaqtga qadar tadqiq qilinmagan muammolardan biri – Cho‘lpon asarlaridagi poetik aktuallashgan folklorizmlarni lingvopoetik tadqiq etishdir. Yozuvchining badiiy matn yaratishda folklorizmlardan foydalanish mahoratini aniqlash o‘zbek adabiy tili taraqqiyotini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Cho‘lpon o‘z asarlarida folklorizmlardan lingvopoetik vosita sifatida unumli foydalangan. Xususan, u badiiy matnlarga maqollarni o‘zgarishsiz, aynan va o‘zgartirilgan shakllarda olib kirgan. Adib maqollar mazmunini muayyan vaziyat, holat va harakatga moslash maqsadida ularni shaklan o‘zgartirib qo‘llagan. Shuningdek, uning asarlarida *Egasiga yarasha – pogoni, Yiqilgan polvon ham achchig‘ini kulib yengadi, Yozilmaganmi bu tunlar so‘ngida tong otmak?* kabi okkazional ifodalar qo‘llanganki, bu adibning so‘z ijodkorligi qobiliyatining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

3. Cho‘lpon o‘zining nasriy va she’riy asarlarida iboralardan lingvopoetik maqsadlarda unumli foydalangan. Uning nasriy asarlarida qahramonning ruhiy holatini tasvirlashda bir necha iboralarning ketmaketlikda qo‘llangani kuzatiladi. Bunday qo‘llanishlar asar qahramonining holatini yaqqol ifodalashga xizmat qilgan.

4. Adib his-hayajon oqimini yuksaltirish, darajama-daraja yuqorilab borish jarayonini ta’kidlash maqsadida iboraning ma’nodosh muqobilini birgalikda

qo‘llaydi. Bunda iboradagi buyoqdorlik yana ham bo‘rtib ko‘rinadi, badiiy matnning ekspressivlik xususiyati yanada ortadi.

5. Badiiy asarlarda eng ko‘p uchraydigan va ko‘zga tez tashlanadigan intermatnlar sarlavhalar bo‘lib, bu Cho‘lpon asarlarida ham ko‘p kuzatiladi. Adib asarlarida badiiy matnga olib kirilgan intermatnlar maqol, mashhur adiblarning gaplari, she‘rlaridan parcha, ashulalar, yor-yor, allalar, pretsedent nomlar, hikoya, rivoyat, afsona, hadislardan iborat.

6. Cho‘lpon o‘zining nasriy va she‘riy asarlarida intertekstuallik hodisasidan mahorat bilan foydalangan. Adib asarlarida qo‘llangan intermatnlar turli maqsadlarga, jumladan, badiiy matn mazmunini boyitish, asar qahramonlarining ruhiyatini aniq tasvirlash, yozuvchining shaxsiy munosabatini aks ettirish kabi lingvopoetik vazifalarni amalga oshirishga xizmat qilgan.

7. Cho‘lpon she‘rlarida qo‘llangan xalq qo‘shiqlari va maqollar intermatn sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Maqol va xalq qo‘shiqlaridan keltirilgan parchalar yozuvchining o‘zi bayon qilayotgan voqeaga yoki ayrim qahramonlar taqdiriga bo‘lgan munosabatni yaqqol ifodalashga xizmat qilgan.

8. Cho‘lpon “Kecha va kunduz” romanida oddiy folklorizmlar bilan birgalikda murakkab folklorizmlardan ham unumli foydalangan. Ularning har biri roman syujetida muayyan lingvopoetik vazifa bajarishga xizmat qilgan. Bu bilan romanning ta’sirchanligi, badiiy-estetik qimmatini ortgan. Romanda qo‘shiq, olqish, qarg‘ish namunalarini aynan yoki o‘zgartirgan holda qo‘llash orqali asar mazmuni boyitilgan hamda qahramonlar ruhiyatini ishonarli tasvirlashga erishilgan.

9. Cho‘lponning analitik folklorizmlardan foydalanishdagi yana bir mahorati shundaki, u romanda “Yor-yor” qo‘shig‘i mazmunidagi “baxtiyorlik”, ona qo‘shig‘idagi g‘amginlik, qayg‘u-iztirob ifodasi orqali kuchli darajadagi kontrast tasvirlarni hosil qilib, asarida emotsional-ekspressivlikni yanada kuchaytirishga erishgan.

10. Cho‘lpon asarlarida maxsus olqish ifodalovchi analitik folklorizmlar kam uchraydi. Biroq adib asarlarida olqishning boshqa til birliklari orqali ifodalanishi ko‘p kuzatiladi. Ularni quyidagicha guruhlariga bo‘lish mumkin: 1. Ayrim tilak bildiruvchi konstruksiyalar olqish uchun qo‘llangan. 2. Ayrim iboralar olqish uchun qo‘llangan.

11. Cho‘lpon asarlarida qo‘llangan qarg‘ishlarni uch guruhga bo‘lish mumkin: 1) o‘ziga nisbatan qo‘llangan qarg‘ishlar; 2) o‘zga shaxslarga nisbatan qo‘llangan qarg‘ishlar; 3) predmet va voqea-hodisalarga nisbatan qo‘llangan qarg‘ishlar. O‘z-o‘zini qarg‘ashdan adib o‘z qahramonlarining nochor, baxtsiz holatlarini aniq tasvirlashda, o‘zgalarni qarg‘ashdan esa bir shaxsning boshqa shaxsga nafratini yoki muayyan shaxsning ijtimoiy tuzum va undagi voqeliklarga noroziligini ekspressiv tarzda ifodalash maqsadida foydalangan.

12. Cho‘lpon asarlarida ijtimoiy-etnografiy folklorizmdan mahorat bilan foydalangan. Natijada o‘zbek xalqining urf-odatlarini, an‘analari va qadriyatlarini badiiy maqsadga mos ravishda yuksak mahorat bilan tasvirlagan va badiiy matnning favqulodda ta’sirchan chiqishiga erisha olgan.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 AT THE INSTITUTE OF UZBEK LANGUAGE,
LITERATURE AND FOLKLORE**

INSTITUTE OF UZBEK LANGUAGE, LITERATURE AND FOLKLORE

AXMEDOVA AZIZA RUSTAMOVNA

**LINGUOPOETIC FEATURES OF FOLKLORE IN A LITERARY TEXT
(on the example of the works of Abdulhamid Sulaiman son Chulpan)**

10.00.01 – Uzbek language

**DISSERTATION ABSTRACT OF DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)
ON PHILOLOGICAL SCIENCES**

Toshkent – 2025

The theme of dissertation for the degree of the doctor of philosophy (PhD) was registered at the Higher Attestation Commission under the Ministry of higher education, science and innovations with the number B2020.3.PhD/Fil446.

The dissertation has been prepared at the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore.


The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume) on the website of (www.tai.uz) and the information and educational portal "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:	Yuldashev Marufjan Muhammadjanovich Doctor of Philological sciences, professor
Official opponents:	Khakimova Muhayya Karimovna Doctor of Philological sciences, professor Saparniyazova Muyassar Doctor of Philological sciences, associate professor
Leading organization:	Tashkent State Pedagogical University

The defense of dissertation will be held on "28" march 2025 at 14.00 at the session of Scientific Council DSc.02/30.12.2019.Fil.46.01 on award scientific degrees at the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Uzbekistan Academy of Sciences (Address: 100060, Tashkent, Shakhrisabz street, 5. Tel: (99871) 233-36-50, fax: (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz.)

The dissertation available in the Main Library of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan (registered by the number 21). Address: 100100, Tashkent, Ziyolilar street, 13. Tel: (99871) 262-74-58.

The abstract of the dissertation was distributed on "13" march 2025.
(Register protocol on "5" 13 march 2025).



N.M. Mahmudov
Chairman of the scientific council
awarding scientific degrees,
Doctor of sciences on philology, professor



A.M. Hasanov
Scientific Secretary of scientific council
awarding scientific degrees,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology sciences



D.S. Khudayberganova
Chairman of the academic seminar under the
scientific council awarding scientific degrees,
Doctor of sciences on philology, professor

INTRODUCTION

(abstract of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation topic. In world linguistics, great importance is attached to the study of the artistic and aesthetic possibilities of language, particularly the use of folklore elements in literary texts and their harmony with the artistic and aesthetic aspects of the work. The reason for this is that folklore samples, created by the people and refined over centuries, significantly enhance the poetic value of a literary work with their polished form, depth of content, and unique ability to express the spirit and character of the people. These elements give the work aesthetic power and linguistic appeal. Therefore, considerable attention is paid to identifying the scope of oral folk art examples skillfully incorporated into literary works and researching them to understand how the artistic and aesthetic potential of our native language is realized through linguistic units.

In world linguistics, the linguopoetic features of literary works' language have been thoroughly studied on the basis of phonetic, lexical-semantic, and syntactic levels. Numerous scientific and theoretical studies have been conducted to examine the linguopoetic possibilities of language units employed by specific poets and writers, and to identify the means that ensure the artistry of the work. One of the important tasks of modern Uzbek linguistics is to study the language of works created by representatives of Jadid literature who were active in the early 20th century and made significant contributions to the development of the Uzbek literary language. This task involves determining their contribution to enriching the expressiveness of our language and establishing the role these works played in this regard¹.

The study and in-depth scientific research of the Uzbek language, which is recognized as the state language in our country, is currently considered one of the issues elevated to the level of state policy. Indeed, "Our ancestors and forefathers have been expressing themselves to the world through our mother tongue. In this language, they have created great examples of culture, significant scientific discoveries, and artistic masterpieces"². Cherishing our native language as one of our rich spiritual heritage and sacred values is an objective necessity and a pressing issue in modern linguistics. Our mother tongue embodies the national mentality, way of thinking, traditional customs, and unique communication style of the Uzbek people. In particular, studying it as a product of national figurative thinking is of paramount importance. In this context, the works of Abdulhamid Sulayman ogli Chulpan hold special significance. Chulpan dedicated himself to the development of modern Uzbek literary language, showcasing the beauty of the Uzbek language through his poems, short stories, novels, and dramas. From this

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi "Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risida"gi PQ-270-son qarori. Source: <https://www.lex.uz/docs/-7027939>

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи, 2019 йил 22 октябрь.

perspective, an in-depth monographic study of the language in Chulpan's works, especially the linguopoetic features of the folklorisms employed by the writer, is crucial in addressing this issue. Such research plays a vital role in solving the aforementioned problem in contemporary linguistics.

This dissertation research serves, to a certain extent, to fulfill the tasks outlined in the following decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan: the Decree "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan" dated February 7, 2017; Resolution No. PQ-2789 "On Further Improving the Activities of the Academy of Sciences, Organization, Management, and Financing of Scientific Research" dated February 17, 2017; Decree No. UP-5850 "On Measures to Fundamentally Enhance the Prestige and Status of the Uzbek Language as the State Language" dated October 21, 2019; Decree No. UP-6084 "On Measures to Further Develop the Uzbek Language and Improve Language Policy in the Country" dated October 20, 2020; as well as other regulatory legal documents.

Compliance of the research with the priorities of the development of science and technology of the republic. The dissertation has been conducted in line with the priority direction of the Republic's science and technology development, specifically: "The social, legal, economic, cultural, spiritual, and educational progress of an information society and a democratic state, along with the advancement of an innovative economy".

Level of study of the problem. Significant research has been conducted on the topic of folklorisms within the field of philology. In this regard, the studies of M.Azadovsky, T.Aliyeva, I.Klimas, A.G.Kostina, and others are particularly noteworthy³. Significant research has been conducted on the topic of folklorisms within the field of philology. In this regard, the studies of M.Azadovsky, T.Aliyeva, I. Klimas, A.G. Kostina, and others are particularly noteworthy⁴. Literary scholars such as B.Sarimsakov, I.Yormatov, L.Sharipova, Kh.Doniyarova, M.Narzikulova, D.Kholikova, and M.Imomkarimova have conducted scientific research on the term folklorism, its classification and types, and its functions in literary texts⁵.

³ Азадовский М.К. Статьи о литературе и фольклоре. – М.-Л.: Гослитиздат, 1960. – 1056 с.; Алиева Т.С. Детская литература и фольклор // Philological sciences. Colloquium – journal. –Warszawa, 2023. – № 29(188). – Р. 14-15.; Klimas И.. Фольклорная лексикология: своеобразие объекта, состав единиц, специфика лексикологических категорий: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Орел, 2005. – 44 с.; Костина А.Г. Фольклорные элементы в лексической структуре художественных текстов Валентина Распутина: К истокам российской ментальности: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург: Лема, 2011. – 25 с.

⁴ Собиров О. Ўзбек совет адабиётида фольклор ва фольклор анъаналари // Ўзбек совет фольклори масалалари. 1-китоб. – Тошкент, 1970.; Мўминов Ғ. Ҳозирги ўзбек адабиётида фольклоризм: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1994. – 288 б.

⁵ Саримсоков Б. Фольклоризмлар типологиясига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1980. – № 4. – Б. 39-44.; Шарипова Л.Ф. XX асрнинг 70-80 йиллари ўзбек шеърларида фольклоризмлар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 155 б.; Дониёрова Ш.Х. Истиқлол даври ўзбек романларида миллий рух ва қаҳрамон муаммоси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2012. – 257 б.; Нарзикулова М. "Сабъи Сайёр" достонида фольклоризмлар ва ўзбек фольклорида Баҳром сюжетининг талқини: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 151 б.; Холикова Д. Ҳозирги ўзбек шеърларида фольклор анъаналари ва бадиий маҳорат: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011. – 162 б.; Имомкаримова М. Ўтқир Ҳошимов асарларида миллий кадритлар талқини: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 150 б.

